

HOZIRGI KUNDAGI TA'LIM TIZIMIDA ONLAYN TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN METODNI TA'LIMGA JORIY QILISHNING AKTUALLIGI

Mirzayev Ashurali Baxtiyor o`g`li

Farg`ona davlat universiteti o`qituvchisi

Mirzayevashurali1997@gmail.com

Annotatsiya

2020-2021 o`quv yili ma`lumotlariga qaraganda mamlakatimizda 481 604 ta xalq ta`limi o`qituvchilari faoliyat yuritmoqda. Bu son har yili o`rtacha 40 mintaga oshayotganini hisobga olsak hozirda (2022-yil) bu soxada taxminan 500 mingdan ziyod ma`rifat tarqatuvchilar mexnat qilayotganini guvohi bo`lishimiz mumkin. Agar biz ta`lim tizimimizda xususan chet tillarini o`qitish yo`nalishlarida o`zgarishlarga, rivojlanishga, ayniqsa, yoshlarni til o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini oshirish hamda ularga til ko`nikmalarini osonlik bilan yetqazib berishni xohlasak, hozirgi kunda qilinayotganidan ko`proq harakat va islohotlar talab etiladi. Ushbu maqolada esa bugungi kun o`quvchilariga onlayn texnologiyalardan foydalangan holda dars o`tishning muhimligi adabiyotlar o`rganishlarning natijalariga asoslangan holda yoritib beriladi.

Kalit so`zlar: ta`lim, metod, onlayn texnologiyalar, motivatsiya, chet tili.

Kirish

Albatta, ta`lim soxasida faoliyat yuritayotgan o`qituvchi bo`lsin yoki til o`rganayotgan o`quvchi bo`lsin, ular o`z-o`zidan ‘faoliyatda yaxshiroq natijalarga erishish uchun nimalar qilish kerak?’ degan savolni o`zlariga beradilar, bunda javobni bir qismi vaziyatning ijtimoiy-psixologik aspektlari bilan bog`liq holda bo`ladi. Masalan, agar biz ingliz tilini o`qitishni onlayn texnologiyalar orqali o`qitish metodikalarini joriy qilmoqchi bo`lsak uning psixo-didaktik asoslari qanday bo`lishi zarur? [1] ... Agar bu savol obykti asosan musulmon dini qadriyatlarini va ruhida tarbiyalangan, mustaqillik davrida, mustaqil fikrlash ko`nikmalarini o`zida mujassamlashtirgan sharoyitda tarbiya topayotgan yosh avlod ekanligini hisobga olsak javob qanday bo`lishini quyidagi paragraflarda tadqiq qilib o`tiladi.

Adabiyotlar tahlili

Demak muammolar nimalardan iborat bo`lishi mumkin? Hozirgi rivojlangan ta`lim jarayoni bizning shahdam qadamlar bilan rivoj topayotgan mamlakatimiz chet tillari o`qituvchilari oldiga eng yangi vazifalarni qo`ydi. Bu ham bo`lsa darslarda onlayn ta`lim texnologiyalaridan foydalangan holda o`quvchilarni til o`rganishga bo`lgan motivatsiyalarini oshirish va masofaviy ta`limda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolarga shu orqali yechim topish [2]. Masofaviy ta`limning o`ziga xos jihati shundaki, bizda xattoki Yevropa va Amerika o`qitish tizimida ham bu

borada boy metodik manbalar, qo`llanmalar yoki resurslar mavjud deya olmaymiz, kommunikativ o`qitish metodi yoki sajjestopediya kabi biz tarixiy kelib chiqishi yohud o`ziga xos jihatlari haqida kitoblarni, o`quv-slubiy materiallarni topish birmuncha mushkul ishdir [3]. Albatta, oxirgi 2-3 yil mobaynida onalyn o`qitish davrning aktual masalasiga aylandi va bu borada H.Bicen, S.Kocakoyun, J.Nicklin, D.Charles, R.Dellos, K.Graham, C.Herodotou, Z.Jabbarova, J.Ergashevlar bir qadar ilmiy izlanishlar olib bordilar va o`zlarining ilmiy natijalarini ilm ahli bilan bo`lishdilar. Shunday bo`lishiga qaramasdan ilm ahli oldida masofaviy ta`limda onlayn texnologiyalardan foydalanishning o`ziga xos jihatlari ilmiy va uslubiy yoritib berish vazifasi turibdi [4].

Bugungi davrda informatsion texnologiyalar sohasida yuz berayotgan va ortga qaytarib bo`lmas rivojlanish va o`zgarishlardan va ular natijasida yuzaga kelayotgan imkoniyatlardan chet tillarini o`qitish sohasida foydalanish uchun chet tili o`qituvchilari oldida yuksak vazifalar turgani barchaga ochiq faktdir [5]. Chunki zamonaviy texnologiyalardan nafaqat kundalik turmush, ijtimoiy soxalardan balki ta`limda, xususan til o`rgatish sohasida foydalanilayotgani til o`rganuvchilardan bu soxadagi ko`nikmalarni muntazam ravishda rivojlantirib borishlarini tabir joiz bo`lsa shu ko`nikmalar borasida qo`shimcha mashg`ulotlar va to`garaklar tashkillash orqali ularni bilimlarini zamon talabiga mos bo`lishiga harakatlar olib borishi zarur [6].

Muhokama va natijalar

Shuni ham alohida takidlash joizki, chet tillari o`qitish sohasiga onlayn texnologiyalarning integratsiyalashuvi ta`limda inson omilining butunlay chetlanishiga yoki ta`lim oluvchilardagi insoniylik ko`nikmalarini chegaralinishiga olib kelmaydi [7]. Boshqa tomondan qaraganda bu jarayon inson bilim ko`nikmalarini davr talabidan kelib chiqqan holda yangi rivojlanish yo`liga burdi deb aytish to`g`riroq bo`ladi. Chunki bugungi kun ta`lim jarayonlari ham rivojlanib borayotgan ta`lab va zarur bilim ko`nikmalarga egadir. Bu talablarda aks etgan ko`nikmalarga ega bo`lish uchun esa avvalgi ta`lim texnologiyalar yoki o`qitish metodlarida ma`lum bo`lmagan onlayn texnologiyalarni o`qitishga integrallashtirish kabi yangi ta`lim strategiyalariga ulkan extiyoj bor [8].

Agar 20 – asr oxiri yillarining eng texnologik rivojlangan kaspi deganda odamlar ko`z o`ngida fazogirlar, kosmonavtlar gavdalanagan bo`lsa bugungi kun o`qituvchisi ham xuddi shunday prototip ostida gavdalanishi, xuddi shunday texnologik rivojlanishdan xabardor bo`lishi lozim [9]. Bunga asosiy sabab bugungi davr til o`rgatuvchilaridan faqatgina an`naviy usulda an`naviy darslarni olib borishnigina talab qilgani yo`q. Bugungi sharoyit til o`rgatuvchilaridan xuddi shu an`naviy metodlardan olish mumkin bo`lgan ta`limiy natijalarni barini, ta`bir joiz bo`lsa, undan ham ziyodaroq natijalarni onlayn va raqamli texnologiyalar integrallashtirish darslarda erishilishini kun talabi etib belgilamoqda [10]. Bu sharyitni yuzaga keltirgan omillar nima o`zi? Bular asosan ikkita qutbda yotadi: birinchisi bugungi yoshlar raqamli va onlayn texnologiyalarga bog`langanligi, ularni o`z hayotlarining ajralmas bo`lagi deb his eta boshlaganligi bo`lsa, ikkinchi

sabab 21 – asrda insoniyat boshiga hayotning har jabhasida turli xil mashaqqatlarni, yangi sharoitlarni olib kelgan pandemiyadir [12].

Xulosa

Bugungi texnologiyalar davrida EFL/ESL o`quvchilarining til ehtiyojlarini qondirishda onlayn va oflayn vositalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Yangi joriy etilgan online vositalarga asoslangan o`qitish usuli ko`pchilik chet tili o`qituvchilari tomonidan yaxshi qabul qilinmoqda. Biroq shuni takidlash kerakki Biroq, eng ko`p foyda olish uchun til o`qituvchilari va o`quvchilariga metodni joriy etishga katta ehtiyoj borligi ta'kidlanadi. Shubhasiz, o`zbek tilini o`rgatish hayotida ham xuddi shunday holat [13]. Til o`qituvchilariga onlayn vositalarni joriy etish bo`yicha ko`plab izlanishlar olib borilgan bo`lsa-da, o`zbek tili darslarida ushbu usuldan foydalanish, o`quv veb-saytlari va internet platformalarini, ularning o`quv dasturlarini joriy etish kabi kamchiliklarni bartaraf etish hali ham mavjud. til o`qituvchilari uchun xususiyatlar. Shu ma'noda, joriy tadqiqot Nearpod.com haqida batafsil ma'lumot beradi va uning bir qator ta'lim xususiyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov, J. J., Makhkamova, G. T., & Ashurov, S. S. (2015). English language teaching methodology. *Tashkent: Fan va texnologiya*.
2. Jalolov, J., Makhkamova, G. T., & Ashurov Sh, S. (2004). English language teaching methodology (theory and practice).
3. Kasimova, G. (2022). IMPORTANCE OF ICE BREAKING ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH. *Science and innovation, 1(B7)*, 117-120.
4. Makhmudovna, K. G. (2022). Creative Strategies to Improve Vocabulary Teaching. *American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10)*, 259-261.
5. Muhammadiyeva, H., Mahkamova, D., Valiyeva, S., & Tojiboyev, I. (2020). The role of critical thinking in developing speaking skills. *International Journal on Integrated Education, 3(1)*, 62-64.
6. Isaqjon, T. (2022). Strategies and techniques for improving EFL learners' reading skills. *Involta Scientific Journal, 1(11)*, 94-99.
7. Ahundjanova, M. A. (2020). METHODS AND METHODS OF TEACHING RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGE AND LITERATURE. *Экономика и социум, (11)*, 46-49.
8. Ahundjanova, M. (2022). THE NEEDS FOR IMPROVING LEARNERS' AUTONOMY IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES—AS A KEY FACTOR TO BOOST LANGUAGE LEARNERS. *Science and innovation, 1(B6)*, 390-392
9. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5)*, 571-575.

10. Pakirdinova, S. A., & Qurbonova, M. (2019). IJTIMOİY TARMOQLAR OMMALASHUVI!. *Интернаука*, (36), 70-72.
11. Holbekova, M., Mamajonova, M., & Holbekov, S. (2021). COMMUNICATIVE APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Экономика и социум*, (3-1), 83-85.
12. Mirzayevna, M. (2021). Innovative technologies in foreign language teaching methodology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 465-467.
13. Алимжонова, М. (2022). ТАЪЛИМНИНГ ГЛОБАЛЛАШУВИ ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАРДА МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ. *Science and innovation*, 1(В3), 254-263.